

O'ZBEKISTON XALQ ARTISTI BUYUK USTOZ BASTAKOR VA SOZANDA TO'XTASIN JALILOV HAYOT YO'LI VA IJODIY FAOLIYATINING O'ZIGA XOS MILLIY MA'NAVIY O'RNI

N .Boychayeva

J.D.P.I. katta o'qituvchisi

Annotatsiya: O'shbu maqolada bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchilarni kasbiy mahoratini takomillashtirishda milliy musiqali dramalarni nota yo'li bilan o'rganishning o'ziga xosligini, janrning mazmun va mohiyatini, yaratgan bastakorning ijodiy faoliyatini o'rganish ma'no mazmunini teran anglash, ijrochilikda ovoz imkoniyatlari hamda ovozturlariga e'tibor berish , mahorat va maromiga yetkazib ijroetishning muhimligi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: milliy musiqiy ariya va duetlarni ovoz vositasida obrazlarni yaratish, ijodiy izlanish.

Davr talabi asosida ajdodlar merosini qund bilan o'rganish va uni avlodlarimiz ongiga milliy meros sifatida singdirish davr talabidir. Ayniqsa milliy kuy va qo'shiqlarni bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchilarining ongiga musiqa darslarida singdirish keng imkoniyatlarni yuzaga chiqarishda asosiy vositadir. Bunday imkoniyatlar Vokal va zamonaviy musiqa darslarida, hamda an'anaviy ijrochilik darslarida o'ziga xos imkoniyatlarni teran anglashga uni maromiga yetkazib ijrochilik mahoratlarini egallashda asosiy vositadir. Bo'lajak musiqa pedagoglarni ijrochilikka xos xususiyatlarini takomillashtirishda manbalarning eng nafis o'ziga xos jihatlarini yoshlar ongiga singdirishda mahratli bastakor ustoz To'xtasin Jalilovning ijodiy faoliyatini teran o'rganish va uni hayotga keng tadbiiq etish yosh mutaxassislarining burchi va vazifasidir.

To'xtasin Jalilov haqida gap ketganda, u kishining naqadar buyukligi, piri ustozligi, o'zbek musiqali teatri san'ati va birinchi milliy orkestriga asos solgan tengi yo'q bastakorligini juda ko'p ulug' ustozlardan eshitganman. Men bu insonning o'zini ko'rmaganman, lekin u kishi yaratgan juda ko'p kuy-qo'shiqlarni,

spektakllar uchun yozilgan ajoyib asarlarini radio, televidenie orqali eshitganman va ba'zi yaratgan qo'shiqlarini o'zim ham ijro etganman . Oddiy so'z bilan aytganda, bizdek shogirdlar (Avazbek Maxmudov tilidan) Ustoz To'xtasin Jalilovga 6-avlod shogirdlar bo'lamiz, ya'ni: ustozning shogirdlaridan biri Komiljon Jabborov, u kishining shogirdi G'ulomjon Hojiqulov, so'ng O'rinboy Nuraliev, u kishining shogirdi Nuriddin Hamroqulov, bu ustozlardan so'ng kamina (Avazbek Maxmudov) bo'lamiz. Endi o'zingiz faraz qiling, Ustoz To'xtasin Jalilovning o'sha davrda 100 dan ortiq shogirdlari bo'lgan. 100 dan ortiq shogirdlarining har birining yana 100 dan ortiq shogirdlari bo'lgan va hokazo...

To'xtasin Jalilov yaratgan, xalqimiz sevib eshitadigan 200 dan ortiq dilrabo kuy va qo'shiqlari hozirgacha yangrab kelmoqda. U milliy musiqamizning o'ziga xosligini, tabiiyligini, ohang va usullarga, sehrlarga boyligini saqlagan holda, xalq qo'shiqlari va kuylariga yana yangi hayot baxsh etib kelmoqda. Ming afsus, hozirgi davrdagi yoshlar ustoz yaratgan «Ravshan va Zulxumor», «Tohir va Zuhra», «Alpomish», Muqimiy nomidagi teatrning oltin fondidan joy olgan spektakllarga yozilgan musiqa va qo'shiqlarini bilmaydilar va hatto eshitmaganlar ham. Hozirgi ijro etilayotgan va bizning ham davrimizda ijro etilgan ko'plab kuy-qo'shiqlar ham ustoz To'xtasin Jalilov yaratgan asarlar tomiriga borib taqaladi. Ma'lumki, viloyat teatrlariga tomoshabinlarning kelishi 1970-yillarga kelib keskin pasaydi, bunga sabab televideniyaning rivojlanishi bo'ldi. Lekin bari bir televideniya orqali ham o'zimizning milliy spektakllarimizning ko'rsatilishi talab darajasida bo'lmadi. Shu sababli biz shogirdlar qayta-qayta buyuk ustozlarimiz yaratgan asarlarni yoshlarimiz ongiga singdirishga va ustozlar nomlarini unutmashliklariga harakat qilaveramiz. O'zbekistonimizdagi mashhur san'atkorlardan Abbas Bakirov, Asad Ismatov, Soyib Xo'jaev, Xadicha Aminova, Lutfixonim Sarimsoqova va shu kabi boshqa ustozlar qatori To'xtasin aka ham xech qanday san'at dargohini bitirmagan. Ustoz-shogird an'anasida olgan bilimlari va Olloh tomonidan berilgan tug'ma iste'dodi bilan mashhur va buyuk inson bo'lishi bilan birgalikda xalqimizning bastakoriga aylandi.

To'xtasin Jalilov 1895 yili Andijon shahrining Soyguzar mahallasida Jalil aka xonadonida tavallud topdi. San'atga mehr qo'yish va uni Olloh tomonidan berib qo'yilishi boshqacha bo'ladi. Tug'ma san'atkor To'xtasin aka yoshligidanoq milliy musiqa asboblarmizdan dutor, tanbur, g'ijjak va doirani mohirlik bilan chalar edi. Dastlabki saboqlarni ustoz-shogird an'anasida ustoz sozandalar bo'lmish Orif Garmon Toshmatov, Mahmudjon Usmonov va Mo'minjon Jabborovlardan oldi.

1919 yilda Andijon teatriga asos solindi va uning asoschilaridan biri To'xtasin Jalilov bo'ldi. U kishi umrining eng go'zal damlarini (15 yil) shu teatrdagi badiiy rahbar va bosh dirijyor sifatida o'tkazdi. 1929 yili Samarqandda musiqali teatr tashkil qilindi va unga To'xtasin Jalilov musiqa rahbari etib tayinlangan. E'tibor bering, o'sha zamonlar juda notinch bo'lgan, ayniqsa, siyosat maydonida kommunistik g'oya hukmronlik qilayotgan bir davrda teatr hayotiga idealistik qarashlar urf bo'lib ketishi natijasida 1930-yillarda ustoz o'z ijodini ko'proq konsert ijrochiligi tomon burdi va milliy orkestr tuzdi. U tanbur, dutor, g'ijjak, chang kabi milliy cholg'u asboblarni yig'ib, 100 kishidan iborat «Milliy orkestr» tashkil qildi. Ushbu davrda o'zi ham va uning yangi tuzgan orkestri ham ko'plab tanqidlarga uchragan. Lekin ustoz orkestr uchun shunday kuylar yaratganki, ular haqiqatdan ham shaklan va mazmunan milliy bo'lib yangragan. Eng asosiysi, Ustozning orkestr uchun bastalangan «Otmagay tong», «Ey quyosh» va yana Sobir Abdulla she'riga bastalangan «To'ylar muborak» qo'shig'i deyarli har kuni butun O'zbekiston bo'ylab yangraydi. Radioning mahalliy kanallarida taralgan «Signal» musiqasi ham ustoz To'xtasin aka ijodiga mansub.

To'xtasin Jalilov 1934 yili Toshkent shahriga ishga taklif etiladi va bu yerda O'zbek musiqali drama teatri tashkil qilinadi. Keyinchalik ushbu teatr Muqimiy nomli musiqali drama teatriga aylantirildi. To'xtasin Jalilov umrining oxirigacha ushbu teatrdagi musiqa rahbari, badiiy rahbar va bosh dirijyor vazifalarida zo'r matonat bilan ishladi.

Turmush o'rtog'i Malohat aya bilan to'rt o'g'il va ikki qizni voyaga yetkazishgan. Biz yosh vaqtimizda Toshkent teatrlarida qo'yiladigan spektakllarni

ko'proq televideniya orqali ko'rardik. Shunda katta qizlari O'zbekiston xalq artisti E'tibor Jalilova (1924.15.3, Andijon — 1983.22.6, Toshkent) «Tohir va Zuhra»da Zuhra, «Ravshan va Zulxumor»da Zulxumor rollarini ijro etar edi. Ba'zan E'tibor Jalilova bilan Farog'at Rahmatova bosh rollarni almashib o'ynar edilar. Ustozning katta o'g'illari Xolxo'ja To'xtasinov (1919 – 1971) bastakor va sozanda sifatida, keyinchalik Muqimiy teatrida bosh dirijyor bo'lib ishlagan. Aytishlaricha, E'tibor opaning vafotidan keyin turmush o'rtog'i Mahmudjon aka umrining oxirigacha uylanmay o'tgan ekan. Ustozning uchinchi o'g'illari Salohiddin To'tasinov mohir sozanda va bastakor edilar. Men bir necha bor u kishi bilan ustozimiz G'ulomjon Hojiqulov orqali ko'rishganman . Sahnalarda ansambl bilan o'rtada o'tirib g'ijjak chalib jamoani boshqarar edilar.

O'sha davrlarda shunday gap tarqalgandi: G'ulomjon Hojiqulov o'zi yakka g'ijjakda doira jo'rligida, Salohiddin To'xtasinov esa ansambli bilan nihoyat darajada chiroyli chalar edilar. Qaysi cholg'u ansamblida g'ijjak chalsa, xuddi uzukka ko'z qo'ygandek yarashib turardi.

San'at arbobi Dehqonboy Jalilov ham mohir sozanda hamda dirijyor bo'lgan (1930 – 1992). Kenja qizlari xonanda-pedagog Xolida Jalilova (1934 – 2015) Tojikiston xalq artisti. Dushanbedagi Sadridin Ayniy nomli opera va balet teatrida ishlagan va ijod qilgan. Kenja o'g'illari Telman Jalilov (1937 – 2002) boshqa sohada faoliyat ko'rsatgan.

Ustoz To'xtasin Jalilov o'zidan keyin nihoyatda ko'p shogirdlar qoldirdi, desak xato qilmaymiz. U kishi bastalagan barcha kuy-qo'shiqlarni chalmagan yoki aytmagan hofiz juda kam bo'lsa kerak. Ular o'zlarining ajoyib san'atlari, bastalagan kuy-qo'shiqlari bilan O'zbekistonimizda obro' qozongan ustozning shogirdlari: Saidjon Kalonov, Muhammadjon Mirzaev, G'anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, Doni Zokirov, Qosimjon Oxunov, G'ulomjon Hojiqulov, Manas Leviev, Xolxo'ja va Salohiddin To'xtasinovlar, Dehqonboy Jalilov, Lutfixonim Sarimsoqova, Saodat Qobulova, Farog'at Rahmatova, Mahmudjon G'ofurov, E'tibor Jalilovalardir (shogirdlar ro'yxatini uzoq davom ettirish mumkin). Yana eng martabali tomoni shundaki, bu shogirdlarning deyarli hammasi

O'zbekiston xalq artistlari, Saodat Qobulova esa sobiq Ittifoq xalq artisti unvoniga sazovor bo'lgan.

O'zbekiston xalq artisti G'ulomjon Hojiqulovning aytishicha, butun O'zbekiston san'atkorlari va hatto muhlislar ham To'xtasin akani «Usta» deb atardilar. Ustozni hurmatlab, Farg'ona vodiysining ayrim ko'chalari, musiqa maktab va kollejlari u kishining nomi bilan ataldi, ya'ni To'xtasin Jalilov ko'chasi, To'xtasin Jalilov nomli san'at kolleji va To'xtasin Jalilov nomli musiqa maktablari mavjud.

1937 yilda Moskva shahrida o'tkazilgan birinchi O'zbekiston dekadasida milliy orkestr bilan To'xtasin Jalilov ishtirok etdi. Dekada yakunidan so'ng u «O'zbekiston xalq artisti» yuksak unvoni bilan taqdirlandi.

Buyuk ustoz, ulug' bastakor va sozanda, O'zbekiston xalq artisti To'xtasin Jalilov 1966 yili 70 yoshida Toshkent shahrida vafot etdi. Yaratgan kuy-qo'shiqlari shu kunlargaacha sozandalarimiz, xonandalarimiz tomonidan sevib ijro qilib kelinmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR..

- 1, Pirmatov.Sh.T.Xonandalik san'ati .O'quv qo'llanma. Toshkent.2011.y.
- 2.To'xtasin Jalilov."Qo'shiqlar xrestomatiyasi"G'.G'nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1989 y.Toshkent.
- 3.To'xtasin Jalilov." Tanlangan asarlar".G'.G'. nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1968.y.Toshkent
- 4.N. Isroilov An'anaviy xofizlik san'ati Toshkent.2007 y.
- 5.N.Boychaeva. Vokal va Zamonaviy musiqa. O'quv qullanma.Toshkent. 2021y
- 6.A.Maxmudov. Andijon san'ati fidoiylari. Andijon.2017 y